

## ONA DIYOR VA ISTIQLOL KUYCHISI

Yaxshiliqova Sevinch

JDPI talabasi

O'z she'rlarida ona yurt madhi, xalqning quvonch-u armonlari, orzu va istaklarini aks ettirgan ijodkor Muhammad Yusuf 1954-yil 26-aprel kuni Andijon viloyati Marhamat tumani Qovunchi qishlog'ida oddiy dehqon oilasida tug'ildi. Beg'ubor, sho'x-shodon bolaligi mana shu qishloqda o'tdi. Bolaligidan adabiyotga o'zgacha mehr qo'ygan Muhammad Yusuf o'rta maktabni bitirgach, Toshkentdagi Rus tili va adabiyoti institutiga o'qishga kirdi. Sharq va G'arb adabiyotini o'rgandi. Institutni muvaffaqiyatli bitirgach turli gazeta va jurnallarda o'z faoliyatini olib bordi.

Muhammad Yusuf qizg'in ijod davrasiga o'zining yorqin she'rlari bilan kirib keldi. Shavkat Rahmon, Usmon Azim, Xurshid Davron kabi ijodkorlar bilan ijodiy musobaqaga kirishdi. Uning ilk ijod namunasi bo'lgan "Tanish teraklar" kitobi 1985-yilda kitobxonlar qo'liga yetib bordi. Shoir ona yurtini madh etib "Vatanim", "Xalq bo'l elim", "Dunyo", "Insho'lloh", "O'zbekmomo" kabi o'nalb she'rlar yozdi. Uning she'rlari oddiy, ravon, soddaligi bilan xalq ko'nglidan joy oldi. Shoir haqida Erkin Vohidov shunday yozgan edi "Uning she'riyatini chin ma'noda qanoatli she'riyat, yurt osmonida baland parvoz qiluvchi, yuraklarga qanot berguvchi she'riyat desa bo'ladi".

Muhammad Yusuf qalamiga mansub "Vatanim" she'rini eshitmagan, qo'shig'ini jo'r bo'lib aytmagan inson kam topiladi. Bu she'rda ona yurt madh etilgan. Shoirning ona yurtidan tuygan mehri xuddi singilning, onaning mehridek iliq. Agar yurt "o'g'lim" deya uni chaqirsa u har qanday mushkulotlar qarshisiga chqqisi keladi. She'rda ulug' ajdodlarimiz: Ulug'bek, Navoiy, Bobur, Mashrab, Temur Malik kabilarning tengsiz jasoratlari tilga olinadi. Bu she'rda shoir ona yurtni e'zozlaydi, xalqning qora kunlarni mardonovor yengib o'tganini madh etadi. Bu

she'r yurakdan chiqib yurakka boradi. "Vatanim" she'ri taniqli xonanda Sevara Nazarxon tomonidan qo'shiq qilib kuylangan. Bastakor she'r matniga shunday musiqa bastalaganki xuddi Muhammad Yusuf oldindan shu musiqani virgoyi qilib she'r bitganday Xonanda Sevara Nazarxon ijrosidagi ushbu qo'shiq har bir inson qalbiga Muhammad Yusuf qalbidagi dardlarni orzu-istaklarni, quvonchni olib kirdi desak adashmaymiz. Uning "Vatanim" she'ri bilan birga yana ko'plab she'rlarida vatan madh etilgan. Muhammad Yusufni "Ona diyor va Istiqlol kuychisi" desak adashmaymiz.

Gul o'pib, gul yopinib har dilda mozorim qolur,

Men ketarman bir kuni, navolarim zorim qolur...

Muhammad Yusuf qisqa umr ko'rsada oltinga teng meros qoldirdi. Uning har bir she'ri, misrasi dur-u gavhar. Muhammad Yusuf qalamiga mansub ijod namunalari uni xalq qalbida adabiy qahramonga aylantirdi.